

5-sinf adabiyot. 1-BSB (50 ball)

Taassurot yozish

Taassurot yozish uchun mavzular:

Soʻz koʻrki – maqol.

Topishmoq – qiziqarli jumboq.

Hadislar namunali odob-axloqqa chorlaydi.

Masallar – yaxshilikka yetaklar.

BSB boʻyicha oʻquvchiga qoʻyiladigan talablar:

- oʻz fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- yuqoridagi mavzularni qayta oʻrganib, mavzulardan biri asosida oʻz fikr-mulohazalarini, taassurotlarini, xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) hamda badiiy-tasviriyl vositalar bilan boyitib ifodalaydi.

Taassurot yozish uchun tavsiyalar

1. Qiziqishlaringiz asosida yuqoridagi mavzulardan birini tanlang.
2. Tanlagan mavzungizni qayta oʻqib chiqing.
3. Eng yoqqan oʻrinlarni belgilab oling.
4. Matndagi shu oʻrinlar nima uchun yoqqanini oʻylab koʻring.
5. Oʻylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan: qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi). Shu ketma-ketlikda taassurotingizni yozishni boshlang.
6. Yozganlaringizni tahrirlang.
7. Oqqa koʻchiring.
8. Qayta tahrirlang.
9. Taqdim eting.

Baholash mezonlari (50 ball)

20 ball		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7	
1. Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball	
2. Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3 – 2	1 ball	

				ball		
3. Husnixat	5 ball					
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo‘lsa –	5 – 4 ball					
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o‘qish biroz qiyin bo‘lsa –	3 ball					
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o‘qish qiyin, shuningdek, harflar bo‘yalgan bo‘lsa –	2 – 1 ball					
4. Fikrini aniq, to‘g‘ri, asosli va izchil ifodalashi 30 ball						
Taassurotni tavsiyalar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, qarashlarini asoslab bergan, shuningdek, ishni xulosalay olgan bo‘lsa–						25–30 ball
Taassurotni yozish mobaynida tavsiyalardan to‘liq foydalanmagan, shu sabab fikrlarida izchillikning biroz izdan chiqqanligi sezilib qolgan, ammo har bir fikri asoslangan, ishni xulosalay olgan bo‘lsa –						19–24 ball
Taassurotni yozish mobaynida tavsiyalardan to‘liq foydalanmagan, shu sabab fikrlarida izchillikning biroz izdan chiqqanligi sezilib qolgan, ayrim fikrlari ham asoslanmagan, ammo ishni xulosalay olgan bo‘lsa–						10–18 ball
Taassurot yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og‘ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, xulosalari ham juda jo‘n bo‘lsa –						5–9 ball

Taassurot yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og‘ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, ishning xulosa qismi yozilmagan bo‘lsa –	1–4 ball
--	-----------------